

**O'ZBEKISTONDA GIMENOLEPIDOZ KASALLIGINING  
TARQALGANLIGI VA UNING ZAMONAVIY EPIDEMIOLOGIK  
XUSUSIYATLARI**

*Nomozboyeva Maftuna Abduhamid qizi*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti, Gigiyena kafedrasida assistenti  
[maftunanomozboyeva@gmail.com](mailto:maftunanomozboyeva@gmail.com)*

*Fayziyev Sarvar Yunus o'g'li*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Tibbiy profilaktika  
ishi yo'nalishi 4-bosqich talabasi  
[sarvarxonfayziyev@gmail.com](mailto:sarvarxonfayziyev@gmail.com)*

*Normurodova Hulkaroy Furkatjonovna*

*Samarqand Davlat Tibbiyot Universiteti Tibbiy profilaktika  
ishi yo'nalishi 4-bosqich talabasi  
[hulkaroynormurodova8@gmail.com](mailto:hulkaroynormurodova8@gmail.com)*

**ANOTATSIYA:** Maqolada aholining kichik qatlami va turli yoshdagi guruhlarida o'rtasida gimenolepidoz kasalligining tarqalganligini oldini olish chora tadbirlarini rivojlantirib borish va uning epidemiologik xususiyatlari yoritilgan.

**TAYANCH SO'ZLAR:** gijjalari, gelmintlar, gimenolepidoz, kasallanish, chora tadbirlar, epidemiologik xususiyatlar, profilaktika.

**MAVZUNING DOLZARBLIGI:** Parazitar kasalliklar orasida epidemiologik va gigiyenik jihatdan gimenolepidozlar yetakchi o'rinni egallamoqda. JJST bergan ma'lumotlarga ko'ra Afrika, Osiyo va Lotin Amerikasi Davlatlari aholisining 91% dan ortig'i geografik va ijtimoiy jihatdan joylashuviga asosan gijjalari bilan kasallanish xavfi ostida yashab kelayotgan aholi qatlami mavjuddir.

Statistik ma'lumotlarga asoslanib, aholining asosan yosh bolalari yuqumli kasalliklarining xavflilik darajasiga asosan ular orasida parazit kasalliklar O'tkir Respirator Virusli Infeksiyalardan so'ng 2-o'rinni egallashi ma'lum. Jahondagi deyarli ko'pchilik banklarning sarflanadigan pul mablag'lariga asosan esa, yuqumli kasalliklarning ichak gijjalari keltiradigan iqtisodiy zarar diareya, sil va yurak qon tomir kasalliklaridan keyingi 4-o'rinni egallab kelmoqda. 270 dan ortiq gelmintozlar inson organizmida kuzatiladigan turli kasalliklar sababchisi hisoblanadi. Ushbu kasalliklar bilan asosan yosh bolalar, maktabgacha va maktab yoshidagi bolalar kasallanadilar. Parazitologik kasalliklar deyarli hamma mamlakatlarda uchraydi. Sayyoramiz aholisining uchdan bir qismi parazitlar kasalliklarning qo'zg'atuvchilari bilan zararlangan.

Butun dunyo miqyosidagi insonlarning gelmintozlar bilan 1,6 milliard kishi

kasallangan. Ulardan 1375 mln. askaridoz, 1034 mln. ankilostomidozlar, 653 mln. trixotsefaliozlar, 367 mln. enterobiozlar, 83 mln. teniarinxozlar, 44 mln. geminolepidozlar, 18 mln. difillobotriozlar, 11 mln. rishta bilan kasallanganlarni tashkil etadi.

Deyarli ko'pchilik hududlarda gelmintozlarning endemikligi ijtimoiy-iqtisodiy, tarixiy va geografik jarayonlar bilan bog'liq. Shu sababli ushbu kasalliklarga qarshi kurashish chora tadbirlari iqtisodiy, ijtimoiy hamda siyosiy jihatdan dolzarb hisoblanadi. Aholining yashash madaniyati va turmush darajasining yaxshilanganligi shahar va qishloq xo'jaligi tadbirlarini amalga oshirish madaniyatining oshganligi hamda gelmintlarga qarshi rejali profilaktik choralarni doimiy ravishda olib borilishi respublikamiz hududida ushbu parazitlar kasalliklari bilan kasallanish ko'rsatkichlari ancha sezilarli darajada pasayishga olib keldi. Shu bilan bir qatorda erishilgan muvaffaqiyatga qaramay, O'zbekistonda parazitlar kasalliklarning 10-12 turi qayd etilmoqda. Enterobioz, gimenolepidoz, askaridoz, teniarinxoz, trixosefallioz kabi gelmintozlar ba'zi hududlarda ommaviy ravishda tarqalgan.

O'zbekiston Respublikasi iqlim sharoitida gelmintozlar guruhiga kiradigan gimenolepidozlarasosan Farg'ona, Sirdaryo, Namangan, va Surxondaryo viloyatlarning tog'li hududlarida boshqa viloyatlarga nisbatan ko'p qayd qilinmoqda.


**TADQIQOT MAQSADI.** O'zbekistonda gimenolepidoz kasalligining tarqalganligi va uning zamonaviy epidemiologik xususiyatlari.

**TADQIQOT MATERIALLARI.** Respublikamizda mavjud SEO va JSXning gelmintozlarning gimenolepidoz bilan kasallanishi bo'yicha rasmiy hisobotlar va epidemik o'choqlarida o'tkazilgan epidemiologik tekshiruv natijalarining ma'lumotlaridan foydalanildi. Ushbu ilmiy ish bajarilishida epidemiologik va statistik usullardan foydalanildi.

**TADQIQOT NATIJALARI.** Bizning respublikamizda gimenolepidoz bo'yicha epidemiologik vaziyatni barqaror deb bo'lmaydi. Hozirgi kunda gimenolepidozga qarshi o'tkazilayotgan chora-tadbirlar va BJSST "Gijjadan holis bolalar" dasrturi va YUNISEF gumanitar tizimi bo'yicha berilgan preparatlar ma'lum darajada o'z samaradorligini namoyon etayotgan bo'lsa ham uni yetarli darajada deb bo'lmaydi. Bunday holatini respublikamiz aholisi orasida kasallikning yildan yilga turg'un holatda qayd etib turilganligi, uning aksariyat hollarda surunkali tus olishi va noxush asoratlarga olib kelayotganligi yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasida 2010-2023 yilgacha qayd etilgan va ro'yxatga olingan gimenolepidoz kasalligining tahlillari shuni ko'rsatdiki kasallanish ko'rsatkichi 100 ming aholiga, har xil yillarda 56.5– 189.13bo'lganligi aniqlandi (1-rasm). Tahlilning dastlabki yili – 2010 yilda respublikamizda gimenolepidoz bilan kasallanishning intensiv ko'rsatkichi har 100 ming aholiga 163,21 tashkil qilgan va tahlil etilayotgan yillar mobaynidagi eng yuqori ko'rsatkich 2015 yil 189.13 ni tashkil

etgan. 2018 yildan boshlab pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2022 yil eng kam ko'rsatkich 88.62 ni tashkil etgan.



### 1-rasm. Respublikamiz 2010-2023 yillarda gimenolepidozning dinamikasi (100 000 aholiga nisbatan)

Kasallik ko'rsatkichining 2022-2023 yillarda keskin kamayishiga sabab, 2020 yil koronavirus kasalligining tarqalganligi va COVID-19 pandemiyasi tufayli respublikamizning deyarli barcha aholisi pandemiya qoidalariga rioya etishi, uyda bo'lishi, jamoat joylariga, bog'cha va maktablarga bormasdan sanitariya-gigiena qoidalariga qat'iy amal qilish turmush tarzini o'ziga va oilasiga chuqur singdirganligi 2022-2023 yillarda kopgina kasalliklarning ayniqsa yuqumli infeksiyon hamda parazitlar kasalliklar kamayganligi kuzatildi. va oilasiga chuqur singdirganligi 2022-2023 yillarda kopgina kasalliklarning ayniqsa yuqumli infeksiyon hamda parazitlar kasalliklar kamayganligi kuzatildi.

**GIMENOLEPIDOZNING EPIDEMIOLOGIK XUSUSIYATLARI.** 1) ushbu parazitlar kasallik asosan kontakt yo'l orqali yuqadigan xavf guruhiga kiritiladi; 2) zararlanganlarning deyarli ko'pchiligi bog'cha yoshidagi bolalar kasallanadi; 3) kasallanganlarda klinik belgilar juda kam namoyon bo'ladi va o'lim ko'rsatkichlari juda past; 4) aholining katta qismida asosan kichik yoshdagilar orasida kasallanish xavfi yuqori bo'lgan dekretiv guruhlarining borligi; 5) sekinlik bilan tarqalishi; 6) zararlanish va kasallikning epidemik tus olmasligi va boshqalar.

**PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLAR.** Gelmintlarning aynan turiga ya'ni gimenolepidozlariga qarshi sammarali profilaktik tadbirlarni amalga oshirishda aholining madaniyati va turmush darajasini yanada oshirish katta ahamiyatga ega. Mana shunday aniq maqsadga erishish uchun quyidagilarni samarali bajarish kerak bo'ladi. Aholining katta qismi aynan bolalar o'rtasida sanitariya-targ'ibot tadbirlarini kuchaytirish. Profilaktik chora-tadbirlarni doimiy ravishda amalga oshirish uchun jamoatchilik va mahalla faollarini jalb qilish. Shaxsiy gigiena tadbirlariga qat'iy rioya qilish. Parazitologiya-gelmint sohasi bo'yicha shifokorlar, o'rta va kichik tibbiyot xodimlarining malakasini doimiy ravishda oshirib borish va bunu samarali tashkil etish. Rejali ommaviy tekshiruvlarda gimenolepidozlar bilan kasallangan bemorlarni faol aniqlash va ularni davolash. Invaziya tarqalishida asosiy ro'l o'ynaydigan aholi

guruhlari orasida bemorlarni aniqlash. Bemorlarni davolash jarayonida tashqi muhitni ularning najasi va boshqa biologik ajratmalari bilan zararlanishiga yo'l qo'ymaslik. Doimiy ravishda gelmintozlarning va albatta geminolepidozning yuqish mavsumini, gelmintozlarning ko'plab nobud bo'ladigan muddatlarini aniqlash va shunga ko'ra yillik, oylik va kvartallik aniq ish rejalar tuzib borish.

**XULOSA.** Aholini kanalizatsiya va toza ichimlik suvi tizimi bilan ta'minlash ko'rsatkichlarini yanada oshirish. Jamiyatimizda oldi hisoblangan tashkilotlarining deyarli barcha ko'lami, ko'kalamzorlashtirilgan bog'lar, mahalla va tuman, shahr markazlashtirilgan sayilgohlar, barcha joylarda mavjud bo'lgan hiyobonlar sanitariya gigienik jihatdan talablariga javob beradigan hojatxonalarni qurish va foydalanishga topshirish, har bir hovlida axlat qutilarini o'rnatish va ularni doimiy ravishda tozalashga, chiqindilarni vaqtida olib ketilishiga erishish. Jamoat hojatxonalarida o'rindiqlar, hojatxonalarining devorlari hamda pollarini har xil ifloslangan narsalar va najas qoldiqlaridan uzluksiz va doimiy ravishda tozalashni samarali yo'lga qo'yish. Kanalizatsiya mavjud bo'lmagan hojatxonalarda ma'lum sig'imga ega o'rnalar, ularning pollari va o'rindiqlarini zararsizlantirish qat'iyan va majburiy joriy qilish lozim.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Maftuna, N. (2022). GIMENOLEPIDOZNING TARQALGANLIGI VA UNING PROFILAKTIK CHORA-TADBIRLARINI TAKOMILLASHTIRISH. *Involta Scientific Journal*, 1(4), 203-208.
2. To'Xtarov, B. E., & Nomozboyeva, M. A. Q. (2023). DEVELOPMENT OF MEASURES TO PREVENT THE SPREAD OF HYMENOLEPIDOSIS IN UZBEKISTAN. *Scientific progress*, 4(2), 52-55.
3. Мусаева О. Т., Номозбоева М. А., Халилова Б. Р. ФАКТОРЫ РИСКА ПРИ ВОЗРОСТНЫХ ЗАБОЛЕВАНИЙ И ИХ ПРОФИЛАКТИКА //European Journal of Interdisciplinary Research and Development. – 2023. – Т. 14. – С. 8-14.
4. Musayeva O., Nomozboyeva M., Khalilova B. FEATURES OF PROVIDING MEDICAL CARE TO ELDERLY AND SENILE CITIZENS //Евразийский журнал медицинских и естественных наук. – 2023. – Т. 3. – №. 2 Part 2. – С. 36-40.
5. Tuichievna, Musayeva Oltinoy, Nomozboeva Maftuna Abdukhamidovna, and Khalilova Barchinoy Rasulovna. "Risk Factors for the Development of Diseases in Old Age and their Prevention." *Research Journal of Trauma and Disability Studies* 2.3 (2023): 15-21.
6. Мусаева О. Т., Номозбоева М. А., Халилова Б. Р. Медицинская Помощь Для Людей Пожилого И Старческого Возраста В Узбекистане //Research Journal

- of Trauma and Disability Studies. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 4-8.
7. qizi Elmurodova L. X. et al. SUVNI KOAGULYATSIYA QILISHNING GIGIYENIK AHAMIYATI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 30. – C. 67-71.
  8. qizi Elmurodova L. X., Mahammadiyev B. F., Ibragimova F. C. ICHIMLIK SUVINI SAMARALI ZARARSIZLANTIRISH USULLARI //GOLDEN BRAIN. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 18-23.
  9. Tuxtarov B. E., Elmurodova L. X. Q. O'ZBEKISTONDA TERI LEYSHMANIOZINING TARQALISHI VA UNING OLDINI OLISH CHORATADBIRLARI //Scientific progress. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 42-48.
  10. Maxmatmurot o'g'li S. M. et al. UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARIDA FOYDALANILADIGAN JIHOZLARGA QO'YILADIGAN GIGIYENIK TALABLAR //INTERNATIONAL JOURNAL OF RECENTLY SCIENTIFIC RESEARCHER'S THEORY. – 2024. – T. 2. – №. 2. – C. 128-132.
  11. Baxriddin o'g'li U. F. et al. STREPTOKOKK AVLODLARIDAGI (STREPTOCOCCUS MUTANTS, STREPTOCOCCUS VIRIDANS, VEYLONELLA) BAKTERIYALARINING OG'IZ BO'SHLIG'IGA TA'SIRINI O'RGANISH //Научный Фокус. – 2024. – T. 1. – №. 10. – C. 476-479.
  12. Baxriddin o'g'li U. F. et al. BOLALARDA QANDLI DIABET KASALLIGINI UCHRASHI, SABABLARI VA PROFLAKTIKASI //JOURNAL OF INNOVATIONS IN SCIENTIFIC AND EDUCATIONAL RESEARCH. – 2024. – T. 7. – №. 2. – C. 73-76.
  13. Tuichievna M. O., Abdukhamidovna N. M., Rasulovna K. B. Risk Factors for the Development of Diseases in Old Age and their Prevention //Research Journal of Trauma and Disability Studies. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 15-21.
  14. Tuxtarov B. E., Elmurodova L. X. Q. O'ZBEKISTONDA TERI LEYSHMANIOZINING TARQALISHI VA UNING OLDINI OLISH CHORATADBIRLARI //Scientific progress. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 42-48.
  15. Tuichievna M. O., Elmurodova L. K., Rasulovna K. B. The Main Age-Related Diseases and Conditions Common among Elderly Men and Women //Scholastic: Journal of Natural and Medical Education. – 2023. – T. 2. – №. 3. – C. 37-43.
  16. Tuxtarov B. E. et al. Scientific progress. 2023. № 2 //URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/o-zbekistonda-terileyshmaniozining-tarqalishi-va-uning-oldini-olish-chora-tadbirlari> (дата обращения: 30.03. 2023).
  17. Мусаева О. Т., Элмуродова Л. Х., Халилова Б. Р. Старение Как Область Научных Исследований И Организация Гериатрической Медицинской Помощи //Central Asian Journal of Medical and Natural Science. – 2023. – T. 4. – №. 2. – C. 317-322.